
Ilg'or terimchilar rag'batlantirilmoqda

Tumanimiz paxta dalalarida shu kunlarda yig'im-terim avj pallasiga kirdi. Barcha fermer xo'jaliklari dalasida paxta terimi uyushqoqlik bilan olib borilayapti. Oppoq paxta xirmonlari kun sayin osmonga bo'y cho'zmoqda. Qo'shtepaliklar ham bir yoqadan bosh chiqarib, g'alaba marrasi sari dadil intilmoqdalar.

Paxta yig'im-terimida uyushmagan aholi vakillari - opa-singillarimiz faol qatnashmoqdalar. Ilg'or terimchilar muntazam ravishda fermerlar, hokimyat vakillari, xomiyar tomonidan rag'batlantirilyapti.

Shu kunlarda "Istiqbol" mahallasi hududida ham paxta terimi jadal sur'atda davom etmoqda. "Xamidullayev Risqitillo" fermer xo'jaligida paxta mavsumida ishtirok etayotgan terimchi opa-singillarimiz mahalla mas'ullari tomonidan rag'batlantirildi.

Rag'bat terimga baraka kiritadi. Ana shunday rag'batlantirishlar tumanimiz bo'ylab davom etmoqda.







2024-10-02 08:36:17